



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 20-noyabr, payshanba,
132 (24.162)-son

O'zbek xalq
maqoli

Tug'ilgan
yerdan
ko'ngil
uzilmas

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Zarafshon

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan **Aziz Abdukaxarovich Abduhakimov** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi – Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi lavozimiga tayinlandi va shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri lavozimidan ozod etildi.



VAZIRLIK MILLIY QO'MITAGA AYLANTIRILDI

Davlatimiz rahbari “Ekologiya va turizm sohaslarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida” farmon qabul qildi.

Unga ko'ra, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi **O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi** sifatida, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Vazirlar Mahkamasi tizimidan chiqarilib, uning negizida amaldagi shtat birliklari saqlangan holda **Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi** tashkil etildi.

Prezident Administratsiyasi tashkiliy tuzilmasida 2 ta shtat birlikidan iborat **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi** bo'linmasi tashkil etiladi.

O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi hamda Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi o'z faoliyatini **Ekologiya qo'mitasi** huzurida davom ettiradi.

Ekologiya qo'mitasi huzurida 15 nafargacha xorijiy va mahalliy ekspertlarni fuqaroviy-huquqiy shartnomalar asosida jalb qilgan holda ekologiya sohasidagi **“Ekologiyalar fabrikasi”** tashkil etiladi.

2026-yil 1-apreldan boshlab ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarni qo'llash tartibi joriy etiladi.

Moliyaviy sanksiyalar pul undirish (jarimalar) tarzida faqat yuridik shaxslarga qo'llanadi.

Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining **Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya)** tashkil etiladi.

Shuningdek, “O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” Prezident qarori qabul qilindi.

Qarorda qayd etilishicha, **Ekologiya qo'mitasi o'z faoliyatida bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobdor hisoblanadi.**

Ekologiya qo'mitasi o'z faoliyatini har qanday davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi hamda uning faoliyatiga ushbu mansabdor shaxslarning aralashuvi taqiqlanadi.

Ekologiya qo'mitasining joriy faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi – Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi rahbarlik qiladi.

Ekologiya qo'mitasi raisining 4 nafar o'rinbosari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, maqomi, mehnatga haq to'lash, tibbiy xizmat va transport ta'minoti sharoitlari bo'yicha tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi o'rinbosarlariga tenglashtiriladi.

2026-yil 1-martdan boshlab tabiatga zarar yetkazish bo'yicha kompensatsiya to'lovlaridan ozod qilish tarzida imtiyoz berish bilan bog'liq barcha qonunchilik hujjatlari va huquqiy kuchga ega ko'rsatmalar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi hamda ushbu masalada imtiyoz berish faqat qonun orqali amalga oshiriladi.

Ekopolitsiya xodimlariga jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni (elektroshok qurilmalarini) va xizmat qurolini (rezina o'qli, to'r otuvchi) qo'llash huquqi beriladi hamda ularning maxsus kiyimiga bodi kameralar o'rnatiladi.

2026-yil 1-apreldan boshlab o'rmon fondiga kirmaydigan daraxt bilan qoplangan aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlari) yer maydonlarini olib qo'yish va boshqa maqsadlar uchun ajratishga jamoatchilik tomonidan taqiq qo'yish bo'yicha tashabbus kiritish imkonini yaratiladi.

Bunda fuqaro davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qiladi.

Daraxt bilan qoplangan yer maydoni joylashgan mahalla aholisining 10 foizidan kam bo'lmagan qismi taqiq qo'yishga rozilik bildirgan taqdirda, Ekologiya qo'mitasi tomonidan ushbu maydonni olib qo'yish va boshqa maqsadlar uchun ajratishga taqiq qo'yiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari **2026-yil 1-noyabrga qadar 2 tadan mahalliy ahamiyatga ega tabiat bog'larini** tashkil etadi.



Yurtimizda “Yashil makon” loyihasining kuzgi mavsumi boshlandi. Joriy yil kuzda o'tgan yillardagidan farqli ravishda 10 million 208 ming tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish bo'yicha reja belgilab olingan (o'tgan yillarda bahorda 10 million tup, kuzda esa 6,5 million tup ko'chat ekilardi). Viloyatdagi 10 ta o'rmon xo'jaligi va xususiy sektor tomonidan kuz mavsumi uchun 14 million tup ko'chat zaxirasi yaratildi.

Barcha tuman va shaharlar hududida ko'chat yarmakalari tashkil qilinib, ilmiy-amaliy seminarlar o'tkazilmoqda. Bugungi kunda Samarqand shahri va Samarqand tumani hududidan o'tuvchi avtomobil yo'li yoqalarida ko'chat yarmakalari tashkil qilingan. Bulung'ur, Past Darg'om, Oqdaryo, Urgut, Paxtachiy tumanlarida seminarlar tashkil etildi.

Prezidentimizning 2025-yil 30-yanvardagi “O'zbekiston - 2030” strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmoniga asosan Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari hamda Past Darg'om, Samarqand va Nurobod tumanlarida “Yashil belbog'”lar tashkil etiladi. Barcha shahar va tuman hokimliklari tomonidan 16 ta hokimlik bog'lari hamda soyali-sayil ko'chalarga barpo etiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-martdagi “Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan “mening bog'im” loyihalarini shakllantirish va

moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga asosan, “mening bog'im” loyihasi doirasida viloyatning barcha tuman va shaharlarida tashabbusli byudjet portali orqali 16 ta loyiha g'olib deb topildi. Ularga loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilmoqda. Shunga asosan “Yashil bog'lar” va “Yashil jamoat parklari” barpo qilinadi.

Atrof-muhitga ta'siri xavfli sanoat korxonalari tomonidan kuz mavsumida 194 ming tup hamda 12 ta chiqindi poligoni atrofida 15 ming tup manzarali daraxt ko'chatlari ekilib, “Yashil belbog'”lar barpo etiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-martdagi farmoyishiga asosan, YUNESKOning 80 yilligi munosabati bilan joriy yil kuz mavsumida Samarqand shahar “Qorasuv” maskanida 5 gektar maydonda 1,5 ming tupdan ortiq daraxt va buta ko'chatlari ekilib, “Yashil bog'” barpo qilinadi.

Ekilgan ko'chatlarni sug'orish maqsadida 32



ta sug'orish qudug'i va 64 kilometr masofada sug'orish tarmoqlari tortiladi.

O'tgan yillardan farqli ravishda ekilgan har bir ko'chatni parvarishlash uchun aniq mas'ullar birlashtirilib, nazorat qilinmoqda. Doimiy suv bilan ta'minlash uchun tomchilatib sug'orish tizimlari, agarda buning imkonini bo'lmasa, tashib sug'orish tizimlari joriy qilinmoqda. Ekilgan nihollar, buta yoki daraxt ko'chatlari bo'yicha mas'ul birlashtirilgan taqdirda ko'chat ekilmagan hisoblanadi va elektron bazada qabul qilinmaydi. Shu bois har bir ekilgan ko'chat qat'iy nazoratga olinadi.

Mavsumni uyushqoqlik bilan o'tkazish va belgilangan vazifalar ijrosini to'liq ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilab olinadi.

Sherali ISKANDAROV, viloyat ekologiya va iqlim o'zgarishi boshqarmasi axborot xizmati rahbari.

SHUBHALI OPERATSIYA

yoki yashirin daromad

belgilari aniqlansa, soliq idorasi tadbirkordan qo'shimcha ma'lumot talab qilishi mumkin

Bugungi kunda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish maqsadida elektron xizmatlar soni 50 tadan oshirilgan. Jumladan, avtomatlashtirilgan «Risk-tahlil» tizimi joriy qilingani soliq tekshiruvlarini kompyuter tizimi orqali o'tkazish imkonini berdi. Mamlakat iqtisodiyoti, odamlarning kundalik hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan soliq tizimida yangiliklar shu qadar tez amalga oshirilmoqdaki, ularni tushunish, anglash faqat foydali bo'lishi shubhasiz. Shu bois, viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Firdavs Nizomovga murojaat qilib, ayrim ma'lumotlarni bilib oldik.



(Davomi 3-sahifada) >>>

INDALLOSINI AYTGANDA...

Nodir JUMAYEV, iqtisod fanlari doktori, professor.

– Ishonch XXI asr diplomatiyasining "yangi valyutasi"ga aylangan. Bu valyutani O'zbekiston o'ziga xos siyosiy jasorat va iqtisodiy izchillik orqali qo'lga kiritmoqda.



O'ktam MIRZAYOR, shoir, “Guliston” va “Teatr” jurnallari birlashgan tahririyati bosh muharriri o'rinbosari:

– Toshkentda yashasam-da, ko'nglim doimo tug'ilib o'sgan Samarqandda. Bu viloyatning adabiy muhitida o'ziga xos o'rn bo'lgan “Zarafshon” gazetasini o'qib voyaga yetganman. Jurnalistika sohasiga kirib kelishimda ham aynan shu gazetaning hissasi bor. Hozir ham uning elektron nusxasini, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini qiziqish bilan kuzatib boraman. Ammo gazetani qo'lga olib, qog'oz hidi kelib turgan sahifalarini mutolaa qilishning zavqi boshqacha.



“Zarafshon” va “Samarkandskiy vestnik” gazetalariga

2026-YIL UCHUN OBUNA
davom etmoqda.

Obunani tahririyat yoki elektron to'lov tizimlari orqali ham rasmiylashtirishingiz mumkin!

TELEFONLAR:
(66) 233-91-51, (66) 233-91-56



Oliy Majlis Senatining 11-yalpi majlisida “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi Qonun muhokama qilindi.

Ijtimoiy himoya tizimi takomillashadi



Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga shaharsozlik hujjatlarida nogironligi bo'lgan shaxslarga shart-sharoitlar yaratish bo'yicha loyihaning alohida bo'limiga (qismiga) amal qilinmagan holda qurilishi tugallangan binolar va inshootlardan foydalanish uchun Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi organlari tomonidan ruxsatnoma berganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmoqda.

Shuningdek, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning tizimida idoralar xodimlarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish hamda ularning qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarini bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47-2-moddasi (otona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda qonunchilik talablarini buzish), 48-moddasi (vasiylik huquqini suiiste'mol qilish), 51-1-moddasi (nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish) bo'yicha ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish jinoyat ishlari bo'yicha sudlardan Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi ijtimoiy inspeksiya vakolatiga o'tkazilmoqda hamda ijtimoiy inspeksiya organlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ma'muriy ishlar

belgilab berilmoqda.

Eng muhim o'zgarishlardan yana biri ijtimoiy himoya yagona reestriga yoki kambag'al oilalar reestriga kiritilgan oilalar a'zolariga qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan homiylik tashkilotlari tomonidan soliq davri mobaynida bazaviy hisoblash miqdori ning yuz baravarigacha miqdorda to'g'ridan-to'g'ri beriladigan pul mablag'lari tarzidagi homiylik xayriyalari uchun soliq solinmasligi, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar, faxriylar, xotinqizlar hamda bolalar jamoat birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida undirilishi mustahkamlanmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamining turmush darajasi yaxshilanishiga, ularga jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishiga, ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatishda ularga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni (shifokor va bank siriga oid, notarial harakatlar, qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni) o'rganish orqali davlat budjetidan ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'larning manzilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maryam NIYOZOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

IT-parklar va sun'iy intellekt

raqamli taraqqiyotga yetaklovchi lokomotiv

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham usiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamonaviy davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish boshqaruv faoliyati samaradorligini oshiribgina qolmay, uning ochiqligi, sifatini ta'minlab, jamoatchilikka davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini kuzatib borish imkonini yaratadi. Muhimi, ular nafaqat zamonaviy boshqaruvni ta'minlaydi, balki aholi turmush darajasini yaxshilash va yangi ish o'rinlari yaratishga ham xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda raqamli texnologiyalar rivoji uchun yaratilgan keng imkoniyatlar bugun o'z samarasini berayotir. Barcha hududlarda IT parklar ochilib, ular uchun alohida soliq rejimi joriy etildi. Bu orqali ming-minglab yoshlar yuqori daromadli ish bilan ta'minlandi. Sohada o'zini o'zi band qilganlar soni ham oshmoqda.

Oxirgi 5 yilda soha eksporti 170 million dollardan 1 milliard dollarga yaqinlashdi. Internet tezligi 7 barobar, mobil internet esa 4,5 barobar oshdi. O'tgan yili sohadagi startaplarga 70 million dollar venchur investitsiya kiritildi. Natijada “Global startaplar indeksi” reytingida O'zbekiston 12 pog'ona yuqorilab, “TOP-100” talikka kirdi.

“Sun'iy intellektga tayyorlik” xalqaro indeksida yurtimiz 17 pog'ona ko'tarilib, Markaziy Osiyoda hamda O'zbekiston telekommunikatsiya sohasining o'sish sur'atlari bo'yicha MDH mamlakatlari reytingida birinchi o'rinni egallagan ham mazkur sohada o'z vaqtida ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasidir.

Yaqinda Prezidentimiz raisligida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida O'zbekistonda sun'iy intellekt rivojlantirish bo'yicha alohida qaror qabul qilinib, sohaning huquqiy asoslari yaratilgani, qisqa davrda davlat xizmatlari, bank-moliya, jamoat xavfsizligi, transport kabi yo'nalishlarda 30 dan ortiq pilot loyihalar ishga tushgani urg'ulandi.

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan IT park loyihasining ikkinchi bosqichiga tamol toshi qo'yilishi esa katta ahamiyatga ega bo'lib, bu tashabbus nafaqat yangi infratuzilma qurilishi, balki mamlakatda axborot texnologiyalari sohasida yangi innovatsion muhit yaratilishiga turtki beradi.

Aytish joizki, “O'zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, 300 mingdan ortiq yoshlarni axborot texnologiyalari sohasida yuqori daromadli ish bilan ta'minlash maqsad qilingan. Xorijiy ekspertlar faqatgina sun'iy intellekt yo'nalishining



o'zida O'zbekistonning salohiyatini 10 milliard dollarga baholamoqda.

Ushbu loyihaga ko'ra, IT park hududi 1,5 barobar kengaytiriladi. Bu yerda Saudiya Arabistonining “Data Volt” kompaniyasi bilan hamkorlikda quvvati 12 megavatt bo'lgan, 150 million dollarlik data-markaz barpo etiladi. Keyingi bosqichlarda yana 3 milliard dollar investitsiya kiritilib, quvvat 500 megavattga yetkaziladi.

Ushbu loyiha doirasida ko'plab yosh mutaxassislar uchun zamonaviy ish joylari tashkil etiladi. Loyihaning amalga oshirilishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, IT parklar raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu yosh mutaxassislar xorijga ketmasdan, mamlakat ichida raqobatbardosh shart-sharoitda ishlash imkoniga ega bo'lishlarini anglatadi.

IT parklar nafaqat texnologik taraqqiyot, balki milliy iqtisodiyot, ta'lim va ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda muhim strategik ahamiyatga ega. Agar bu jarayon izchil va tizimli ravishda amalga oshirilsa, O'zbekiston yaqin kelajakda Markaziy Osiyoning raqamli markaziga aylanishi mumkin. Bu esa yurtimiz yoshlariga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Diyor HUSANOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Suv sohasi raqamlashtiriladi

Joriy yil 13-oktabrda Prezidentimizning “Suv sohasini raqamlashtirish jarayonini yanada jadallashtirish va barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi.

Farmonning asosiy maqsadlari sifatida respublikada foydalanilayotgan suv resurslari hisobining to'liq yuritilishini yo'lga qo'yish va 400 dan ortiq ma'lumotlarni raqamlashtirish; 600 mingdan ortiq suv iste'molchilari, 4,3 million gektar sug'oriladigan yer maydonlari hamda sug'orish uchun foydalanilgan suv resurslari to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron tarzda shakllantirish; suv hisobi yuritilishi jarayonida inson omilini kamaytirish, suvdan foydalanuvchilar va iqtisodiyot tarmoqlarida suv resurslaridan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish; suv sohasini barqaror rivojlantirish, innovatsion va ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish belgilangan.

Suv xo'jaligi sohasida raqamlashtirish jarayonini yanada jadallashtirish maqsadida Suv xo'jaligi vazirligining tuzilmasida Markaziy dispetcherlik va suv balansi xizmati negizida davlat muassasasi shaklida Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi tashkil etiladi.

Qayd qilinayotgan masala avvalida ayrim raqamlarga to'xtalib o'tsam. Zero, aynan shular qilingan va qilinayotgan ishlar mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, bugungi kunda viloyatda, 1 million 638 ming nafar iqtisodiy faol aholi mavjud. Tahlillarga ko'ra, ish bilan band bo'lganlar 1 554 ming nafarni tashkil etadi. Shundan rasmiy sektorda bandlar 702,6 ming nafar, norasmiy sektorda bandlar 599,6 ming nafar, xorijga ishlash uchun ketganlar 252,4 ming nafar, ishsizlar 83,3 ming nafar.

BANDLIK DASTURI AMALDA

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida 34 ming 404 nafar fuqaroning ishga joylashishiga ko'maklashildi (19474 nafari xotin-qizlar va 11064 nafari yoshlari).

Bugungi kunda viloyatdagi 13357 ta korxona va tashkilotda 36 mingta bo'sh ish o'rni mavjud.

Mavjud bo'sh ish o'rinlarining 10991 tasi oliy, 22308 tasi o'rta-maxsus ma'lumot talab etsa, 2734 tasi ma'lumot talab etmaydi.

Shuningdek, xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi sessiyalari qarorlari bilan tasdiqlangan reja-grafiklarga asosan joriy yilning yanvar-avgust oylarida 219,2 ming aholini band qilish belgilangan bo'lib, amalda 265,1 ming aholi daromadli mehnat bilan band qilindi.

Xususan, investitsiya loyihalari hisobiga 11,5 ming, aholini doimiy ishga joylashtirish va tadbirkorlikka jalb etish sohasida 183,9 ming, qishloq xo'jaligida 58,3 ming, qurilish yo'nalishida 11,6 ming aholi doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band qilindi.

Amalga oshirilgan ishlar hamda chora-tadbirlar ijrosi bo'yicha yil yakuni bilan Bandlik dasturi 360 mingtaga yoki 112,5 foizga bajarilishi prognoz qilingan.

BEPUL KASB-HUNARGA O'RGATILADI

Viloyatimizda Prezidentimizning “2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida ishsiz aholini kasb-hunarga o'qitishning vaucher tizimi joriy qilingan. Bunda kasb-hunarga o'qish istagida bo'lgan fuqaro

Yangi ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish

Davlat siyosatining bu ustuvor yo'nalishida nima ishlar qilinmoqda?

vaucher asosida ta'lim muassasasini erkin tanlash imkoniyatiga ega. Ishsiz va band bo'lmagan aholi kasb-hunar va xorijiy tillarga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan bepul o'qitiladi.

Viloyatimizda band bo'lmagan aholiga xizmat ko'rsatuvchi 6 ta kasbiy ko'nikmalar markazi hamda aholini kasb hunarga o'qitish maqsadida ecosys.mehnat.uz dasturidan o'tgan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi 24 ta kasb-hunar maktabi va 20 ta nodavlat ta'lim muassasasi mavjud.

Joriy yilda 16,9 ming nafar ishsiz va band bo'lmagan fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish rejalashtirilgan bo'lib, o'tgan davr mobaynida 17,3 ming nafar ishsizlar talab yuqori bo'lgan 36 ta yo'nalishda kasb-hunarga va xorijiy tillarga o'qitildi.

ISHLAR MAHALLABAY AMALGA OSHIRILADI

Yilning o'tgan davri mobaynida hokim yordamchilari bilan birgalikda 154 ming 643 nafar aholi o'zini-o'zi band qilgan, 100985 nafar doimiy ish joylariga joylashtirilgan, 6838 nafar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan.

Viloyatda hokim yordamchilarining tavsiyasi asosida o'qish istagini bildirgan 16604 nafar fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitildi.

2025-yilning o'tgan davri mobaynida har bir mahallada 40 tadan mikroloyihani ishga tushirish topshirig'i asosida, hokim yordamchilari tomonidan “Online-mahalla” platformasida 37 389 ta mikroloyiha kiritildi va 1,7 trillion so'mlik bu loyihalarda 76673 nafar ishsiz fuqaroning bandligi ta'minlandi.

Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan 253 nafar fuqaroga 2,9 milliard so'm ssuda hamda 90 nafar fuqaroga

635,8 million so'm subsidiya mablag'lari ajratilgan.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida imtiyozli kreditlar aholining mahallalar o'sish nuqtalari (drayver) asosida daromadlarini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu maqsadda jismoniy va yuridik shaxslarga 314,2 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratilgan bo'lib, ushbu moliyaviy manbalarda mahallalarda ishsizlar, yoshlar va xotin-qizlarning kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalari bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ko'mak bo'lmoqda.

MEHNAT INSPEKSIYASI AMALGA OSHIRGAN ISHLAR

Joriy yilning o'tgan yanvar-sentabr oylari davomida davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan jami 740 ta korxona va tashkilotda o'rganish o'tkazildi. O'rganishlar davomida 3396 ta kamchilik aniqlangan.

O'rganishda aniqlangan kamchiliklar bo'yicha 705 ta ish beruvchi mansabdor shaxslarga nisbatan 1612,3 million so'm ma'muriy jarima qo'llanilgan.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat texnik inspektorlari tomonidan biryo'la to'lanadigan nafaqa puli va oyma-oy zarar pullarini undirish to'g'risida Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga 5 ta (345,7 million so'mlik) da'vo arizasi kiritilgan.

2025-yil yanvar-sentabr oylari davomida viloyat miqyosida korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarish bilan bog'liq holda 37 ta baxtsiz hodisa tekshirilib, hisobga olindi.

KAMBAG'ALLIK DARAJASI PASAYTIRILADI

Viloyatda yil boshida 70285 oila (321173 a'zolari soni) kambag'allik reestriga kiritilgan bo'lib, joriy



yilda 35663 ta oila (a'zolari 163384 nafar) ni kambag'allikdan chiqarish rejasi tasdiqlangan.

Yilning 9 oyida mazkur oilalar uchun tuzilgan individual rejalar asosida 29238 ta oilaga daromadini oshirishga qaratilgan xizmatlar ko'rsatildi.

Jumladan, 22940 kishi doimiy ishga joylashtirildi, 23633 kishi tadbirkorlikka jalb etildi, 8240 nafariga kredit va subsidiya mablag'lari ajratilgan hamda 489 nafar fuqaro kasb-hunarga o'qitildi.

Kambag'al oilalarga ko'rsatilgan xizmatlar natijasida yilning o'tgan davri mobaynida 30002 ta oila (a'zolari soni 124611 nafar) kambag'allik reestridan chiqarildi. Yil yakuniga qadar 8983 ta oilani kambag'allik reestridan chiqarish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilab olingan.

Temur MAHMUDOV,
viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i.



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

- **Firdavs Rahmatovich, suhbatimizni yaqinda joriy qilingan yangiliklardan boshlasak. Bu o'zgarishlar soliq to'lovchilarga qanday ta'sir ko'rsatdi?**

- Avvalo, qayd etish lozim, 2024-2025-yillarda Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan uy-joy va boshqa ko'chmas mulklarning soliq bazasi va stavkalari oshirildi. Masalan, ko'p qavatli uylarda turar-joy uchun eng kichik soliq bazasi – 42 million so'm etib belgilandi. Shu bilan birga uy-joy solig'i stavkalari kattaligiga qarab 0,31–0,55 foiz oralig'ida belgilandi (200 mrgacha - 0,31 foiz, 200 500 mrgacha - 0,41 foiz, 500 mrdan katta - 0,55 foiz va hokazo).

Jismoniy shaxslar uchun yer va mol-mulk soliqlari indeksatsiya qilindi. 2024-2025-yillarda bazaviy yer solig'i stavkalari 12 foizga oshirildi, lekin qishloq xo'jaligiga ajratilgan yerlarda birinchi reja-stabillik saqlandi (bunda yer uchun stavkalar va imtiyozlar o'zgarmadi). Bunda, har bir shaxs uchun yillik soliqning o'tgan yilga nisbatan 1,3 baravardan ko'p bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliqqa tortish nazorati kuchaytirildi. Misol uchun, joriy yildan boshlab konsert-ijrochilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun yangi elektron deklaratsiya xizmati yo'lga qo'yildi. Shaxslar «Soliq» mobil ilovasi orqali FaceID bilan o'zini tasdiqlagandan so'ng yillik daromad deklaratsiyasini soddalashtirilgan tartibda topshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. 2024-2025-yillarda O'zbekistonda jismoniy shaxslar uchun soliq tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar aholining kundalik hayoti va moliyaviy majburiyatlari-ga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Avvalo, raqamlashtirish va elektron xizmatlarning kengaytirilishi soliq to'lov jarayonini ancha qulay va shaffof qildi.

Umumiy qilib aytganda, mazkur o'zgarishlar aholi uchun ikki xil ta'sir ko'rsatdi: bir tomondan, soliq to'lash jarayoni elektron xizmatlar orqali qulaylashdi, sarsongarchilik kamaydi va keshbek kabi rag'batlantirish tizimlari saqlandi. Ikkinchi tomondan, mol-mulk va yer solig'i orqali yuklama biroz ortib, ayrim toifadagi fuqarolarning xarajatlari ko'paydi. Biroq bu islohotlar soliq tizimini yanada shaffof va adolatli qilish, yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

- **Shu o'rinda savol tug'iladi: soliq to'lash jarayoni yengil bo'lmasa, soliq yuki har qancha kamaytirilgani yoki boshqa islohotlarning samarasi sezilmasligi mumkin. Bu borada nima deysiz?**

- Keyingi yillarda O'zbekistonda soliq to'lov jarayoni-ni yengillashtirish maqsadida qator aniq chora-tadbirlar ko'ringdi. Avvalo, raqamlashtirish jarayoni katta sur'at bilan joriy etildi. Masalan, har bir soliq to'lovchi o'z hisob-kitoblari, qarzdorlik yoki imtiyozlari haqidagi ma'lumotlarni endi qog'oz xatlar orqali emas, balki shaxsiy elektron kabinet, mobil ilovalar va SMS orqali oladi. Bu nafaqat vaqtni tejaydi, balki byurokratik sarsongarchilik-ni ham yo'qqa chiqaradi.

«Soliq» mobil ilovasi esa jarayonni yanada qulay qildi. U orqali soliqlarni onlayn tarzda to'lash, deklaratsiya topshirish, hisobotlarni kuzatish va hatto keshbek olish mumkin. Masalan, cheklar orqali 1 foizlik qaytarish tizimi aholini rasmiy xaridlarga undab, soliq intizomini mustahkamladi.

Shuningdek, deklaratsiya topshirish tartibi ham soddalashtirildi.

Yana bir muhim chora – to'lovlarda shaffoflikni ta'minlash va ortiqcha yuklamani kamaytirish maqsadi-da soliq miqdorini yildan-yilga keskin oshirmaslik tizimi joriy etilgani. Masalan, uy-joy va yer solig'i bo'yicha indeksatsiya qilinsa-da, to'lov o'tgan yilga nisbatan 1,3 baravardan ko'p bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Umuman, elektron xizmatlar, onlayn nazorat vositalari, soddalashtirilgan deklaratsiya tartibi va cheklarni rag'batlantirish kabi choralar soliq to'lash jarayonini aholi uchun qulay va shaffof qilishga qaratilgan.

- **Xo'p, samarasi sezilyaptimi?**

- Albatta, joriy yil 6 oylik uchun 2 trillion 907 milliard so'm byudjet prognozi amalda 3 trillion 051 milliard so'mga yoki 105 foizga bajarildi. Tushumlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128 foiz o'sishiga erishildi.

- **Soliq to'lashda eng faol sohalar qaysilar? Qaysilarda muammolar ko'proq?**

- Eng faol soliq to'lovchi bo'lgan sohalar asosan katta korporativ sektor - tog'-konchilik, energetika va

SHUBHALI OPERATSIYA

yoki yashirin daromad belgilari aniqlansa, soliq idorasi tadbirkordan qo'shimcha ma'lumot talab qilishi mumkin



kimyo, metall ishlab chiqarish, banklar va telekom-munikatsiyalardir. Bu korxonalar katta foydaga ega, moliyaviy hisob-kitoblari tartibli va xalqaro standartlarga yaqinroq bo'lgani uchun soliq bazaga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri katta. Ushbu soliq to'lovchilar umumiy tushum-niing sezilarli qismiga hissa qo'shmoqda.

Aksincha, muammolarni ko'proq ko'rsatayotgan va soliq to'lashda "kam faol" bo'lgan sektorlar - qishloq xo'jaligi (ayniqsa, kichik yer egalari va chorvachilik bilan shug'ullanuvchilar), an'anaviy bozor savdosi va chakana savdo, qurilish faoliyati va xizmat ko'rsatish (taxminan taksi/transport, mehmonxona-xizmatlar, umumiy ovqatlanish) hisoblanadi. Bu sohalar-da naqd to'lovlar ko'p, hisob-faktura va elektron kassalardan foydalanish past yoki ularning hisobotlari to'liq emas.

Amaldagi misol sifatida: qishloq xo'jaligi va an'anaviy bozorlardagi kichik mahsulot sotuvchilari ko'pincha biror bir soliq rejimiga rasman o'tmagan, ya'ni "o'zini o'zi band etish" yoki patent orqali to'liq ro'yxatga kirmagan holda ishlaydi - bu esa soliq yig'irlarini pasaytirishga olib keladi. Qurilish sohasida esa taxminan xodimlarning sonini yashirish yoki haqiqiy ish haqini kam ko'rsatish orqali soliq bazasini tushirish holatlari kuzatiladi. Bu turdagi muammolar sohani to'liq nazorat qilishni qiyinlashtiradi.

- **Demak, soliq intizomiga qat'iy rioya qilishni ta'minlashga zarurat bor, to'g'rimi?**

- Bunda, avvalo, soliq intizomiga rioya qilmaslik holatlari turlicha - ular ijtimoiy-iqtisodiy maydondan tortib, hujjat aylantirish va naqd to'lovlardagi "yashirin" operatsiyalargacha davom etishini aytib o'tish lozim.

Eng keng kuzatiladigan holatlardan biri - daromadlarni yoki aylanmani kam ko'rsatish hamda chiqimlar uchun soxta hisob-fakturalari yoki hujjatlar tayyorlash orqali soliq bazasini sun'iy ravishda kamaytirishdir. Bunda ayniqsa QQS bo'yicha qalbakli yoki takroriy hisob-fakturalar orqali soliq yig'irlarini qaytarib olishga urinish kabi holatlar tarqalgan. Bundan tashqari, naqd pul bilan bajariladigan savdo va xizmat ko'rsatish - an'anaviy bozor, kichik chakana va ba'zi xizmat sohalar-i (oshxona, sartaroshxona, kichik qurilish va hokazo) - hisob-kitoblarni rasmiylashtirmasdan qoldirish orqali soliq to'lashdan qochish holatlari ko'p uchraydi. Shuningdek, ishchi xodimlar sonini yashirish va ularga konvert usulida oylik to'lash ham keng tarqalgan.

Bunday noqonuniylikka qarshi **birinchi va eng ko'zga tashlanadigan chora** raqamlashtirish va elektron hisob uchun majburiyatlarni kuchaytirishdir. Elektron hisob-fakturalar tizimi raqamli ma'lumotlar bazasiga to'g'ridan-to'g'ri kiritilayotgani uchun har bir savdo va xizmat operatsiyasi davlat nazoratiga tushadi. Bu QQS bilan bog'liq soxta operatsiyalarni kamaytiradi va hisoblar shaffofligini oshiradi. O'zaro hisob-kitoblarda elektron shakldagi hisob-fakturalardan foydalanish va ularni markazlashtirilgan tarzda saqlash tartiblari allaqachon me'yorlashtirilgan.

Ikkinchi yo'nalish onlayn nazorat kassa qurilmalari va fiskal cheklar tizimini kengaytirishdir. Onlayn-NKMLar orqali cheklar va to'lovlar haqidagi ma'lumotlar darhol markazga yuboriladi.

Shu bilan birga, aholi uchun cheklar orqali 1 foiz keshbek kabi rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilib,

fuqarolarni chek operatsiya olishga undamoqda. Bu choralar naqd pul oqimini qisqartiradi va savdo operatsiyalarini rasmiylashtirishga majbur qiladi. Hukumat 2024–2025-yillarda mazkur mexanizmlarni saqlab qoldi va cheklar uchun keshbek bo'yicha ayrim mo'tadil chekllovlar joriy etildi.

Uchinchi chora - nazorat va jazo mexanizmlarini kuchaytirish: risk asosidagi auditlar, soliq tekshiruvlarining avtomatlashtirilishi, soliq qarzini majburiy undirish va ma'muriy hamda jinoyi javobgarlikning qat'iyatli qo'llanilishi.

Yana bir muhim yo'nalish - banklar, bojxona va soliq organlari o'rtasidagi axborot almashinuvi va xalqaro hamkorlikni kengaytirishdir. Elektron ma'lumotlar almashinuvi har qanday tashqi tranzaksiyalarni tez aniqlash va tekshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, huquqni qo'llash sohasidagi amaliy qadamlar ham mavjud. Soliq organlari soliq hujjatlarida-gi kamchiliklarni ma'lum qilgan shaxslarni rag'batlantirish uchun "Soliq hamkor" tizimini joriy qilgan.

- **Tadbirkorlar uchun imtiyoz berish ham intizomni mustahkamlashda muhim omil bo'lishi mumkin emasmi?**

- Albatta. Aslida so'nggi yillarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda va bu soliq tizimidagi bir qator imtiyoz va yengilliklarda ham o'z aksini topmoqda.

Avvalo, kichik biznes va yangi tashkil etilgan korxonalar uchun soliq yukini kamaytirishga qaratilgan tartiblar joriy etilgan. Masalan, aylanmadan olinadigan soliq to'lovidan ilk marotaba ko'shilgan qiymat solig'i (QQS) to'loviga o'tgan tadbirkorlarga bir qator rag'batlantirish choralari belgilandi: ular ma'lum muddat davomida soliq yukidan qisman ozod qilinadi yoki kompensatsiya mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Qurilish, qishloq xo'jaligi, turizm va IT sohasida ham sohaviy imtiyozlar mavjud. Masalan, axborot texnologiyalari kompaniyalari uchun 10 yilgacha QQS va foyda solig'idan ozod qilish yoki past stavkalar qo'llash tartiblari amalda. Qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklari uchun foyda solig'ida belgilangan imtiyozlar saqlanib qolingan, ayrim hollarda subsidiyalar va qo'shimcha kredit resurslari taqdim etiladi.

Tadbirkorlarning eng katta orzu-istaklaridan biri soliq hisobotlarini soddalashtirish edi. Hozirda elektron hisobot va mobil ilovalar orqali hisobot taqdim etish imkoniyati mavjud, bu vaqt va sarf-xarajetni kamaytirdi. Shuningdek, kichik tadbirkorlar uchun soliq rejimlari soddalashtirilgan va ularga qulay tartibda hisob-kitob qilish imkoniyati yaratilgan.

Yana bir muhim yengillik - soliq yukining keskin oshirilishiga chek qo'yilgani. Bu tadbirkorlik subyektlariga o'z xarajatlarni oldindan rejalashtirish imkonini berdi.

Bundan tashqari, "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" dasturi doirasida, agar tadbirkorlik subyekti yangi ish o'rinlari yaratsa, soliq imtiyozlari beriladi.

Faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarini reytinglash tizimi joriy qilingan va reyting darajasi yuqorilasa, ularga ko'rsatiladigan imtiyozlar miqdori ham oshadi.

- **Soliq tizimida raqamlashtirish jarayoni qay tarzda kechmoqda?**

Инсон ҳаёти - бу нафақат ўтилган йўллар, балки қолдирилган излар билан ҳам қадрланади. Меҳнат, садоқат ва инсонийлик билан безанган умрлар борки, улар ҳақиқий ибратли мактабига айланади. Ана шундай ибратли ҳаёт эгалари сафида фидойи инсон Тоир Раҳматов ҳам бор.

Т.Раҳматов 1950 йилда Самарқанд шаҳрида зиёли ва меҳнат-севар оилада дунёга келди. Меҳр, ҳалоллик ва сабр-тоқат унга ота-онаси томонидан сингдирилди. Мактабда ўқиш жараёнида у интизомли, билимга чанқоқ йигитлиги билан бошқалардан ажралаб турарди.

1967 йилда Самарқанд шаҳридаги 15-мактабни тамомлаб, Мўғулистонда ҳарбий хизматни ўтади.

Ватанга қайтган, Самарқанд давлат университетининг география факультетига таҳсил олди.

1977 йилда илк меҳнат фаолияти-ни университетнинг хўжалик таъминоти бўлимида оддий ишчи сифатида бошлади. Қисқа вақт ичида ўзининг интизими ва меҳнатсеварлиги билан жамоа ҳурматига сазовор бўлди.

Бугун ҳам у Самарқанд давлат

ЭЛ АРДОҒИДАГИ МЕҲНАТ ФАХРИЙСИ

университетининг хўжалик таъминоти бўлими бошлиғи сифатида меҳнат қилиб келмоқда. Олийгоҳ моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, таълим жараёни учун қулай шaroитлар яратиш, биноларни тартибли сақлашда унинг ҳиссаси бекиёс.

1985 йилда Т.Раҳматов универсitetи касса уюшмаси раиси ўринбосари этиб сайланди. Бу лавозимда у хodимларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш, уларнинг турмуш даражасини яхшилаш, oilaviй ва моддий муаммоларини ҳал этиш борасида катта ишларни амалга оширди. Унинг ташаббуси билан кўплаб хodимлар турархой ва моддий ёрдам билан таъминланди, қатор ижтимоий лойиҳалар йўлга қўйилди.

Тоир ака фақат иш жойида эмас, балки жамият ҳаётида ҳам фаол иштирок этади. 1974-1984 йиллар давомида у Дари жанжир маҳалласи жамоатчилиқ кенгаши раиси вазифасини бажарди. Бу даврда у маҳаллада бирдамликни мустаҳкамлаш, ёшларга тарбия бериш, тўй-маъракаларни тартибли ўтказиш каби хайрли ишларга бош-қош бўлди. Кўплаб ободонлаштириш ишлари амалга оширилди, муҳтожларга ёрдам кўрсатиш анъанага айланди.



Т.Раҳматов турмуш ўртоғи Мубаропа билан фарзандларини ҳалол, меҳнатсевар этиб тарбиялади. Бугун уларнинг фарзандлари ва набиралари юртга хизмат қилмоқда.

Меҳнатсевар ва фидойи инсоннинг хизматлари беэтибор қолмади ва I даражали "Меҳнат фaҳрийси" кўкрак нишони билан тақдирланди.

Тоир Раҳматовни муборак 75 ёши билан табриқлаймиз!

У кишига сийҳат-саломатлик, тинч ва фaйзли умр тилаймиз. Ҳар кунингиз шодлик ва барака билан тўлсин!

Зоҳир ҲАСАНЗОДА,
Ўзбекистон журналистлар уюшмаси аъзоси.

РЕКЛАМА, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand viloyati Nurobod tumani davlat xizmatlari markazidan 2020-yil 7-oktabrda 000181 reestr raqami bilan ro'yxatga olingan Nurobod pedagogika kolleji O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-sonli farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tugatilmogda.

Shu munosabat bilan Nurobod pedagogika kollejiga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Kollej pochta manzili: Samarqand viloyati Nurobod tumani, "Jom" MFY, Jom qishlog'i.

Nurobod pedagogika kollejining soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR): 206977032.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Suyunova Nazira Nematovnaga (2024-yil 9-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Alamedova Gaxar Taironvaga (2021-yil 31-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mustayev Azizbek

Faxriddinovich notarial idorasida marhum Gulyamov Uktam Sattarovichga (2020-yil 4-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 50-uy, 34-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Muxtarov Mamatkulga (2020-yil 1-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Marupov Tolib Irgashevichga (2020-yil 13-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'li ko'chasi, 9-"B" uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Tashov Xaydar Ibragimovichga (2023-yil 12-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Radjabova Zaxroga (2005-yil 27-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi "AGROMIR BUILDINGS" MCHJ nomidan ishonchnoma asosida X.T.Abidov va sotib oluvchi Narzullayeva Bahriniso Nomoz qizi o'rtasida Samarqand shahri "Qorasuv" MFY, Qorasuv ko'chasi, 82-uyda joylashgan "Omborxona binosining qurilish tagidagi maydoni 51,70 kv.m., sotilayotgan foydal maydoni 46,66 kv.m.ni tashkil etgan, 0001 liter 1-qavatidagi 9 va 10-xonalari" uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligida 2025-yil 20-mayda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 194-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomaga asosida 2025-yil 20-mayda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Sotuvchi "SHERZOD BUILDING SYSTEM" MCHJ direktori F.M.Tagiev va sotib oluvchi Musinova Muxabbat Muradovna o'rtasida Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 81-"B" manzilda joylashgan "A, B, V bloklardagi binolarning yerto'la qismida joylashgan omborxona, A va B bloklardagi savdo va maishiy xizmat ko'rsatish binolarning B blok 0002 liter, yerto'la qismidagi 6, 7, 8 va 9-xonalari" uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligida 2022-yil 31-mayda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 130-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomaga asosida 2022-yil 31-mayda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

- Bu jarayon nafaqat soliq organlari uchun, balki soliq to'lovchilar uchun ham katta qulaylik yaratmoqda. Jumladan, soliq tizimining asosiy xizmatlari bosqichma-bosqich onlayn platformalarga o'tkazildi. Har bir jismoniy shaxs va tadbirkor uchun shaxsiy kabinet yaratildi, unda soliq majburiyatlari, to'lov xabarnomalari, hisobotlar va imtiyozlar to'g'risida to'liq ma'lumot mavjud.

Tadbirkorlar uchun onlayn nazorat kassa mashinalari joriy etildi. Bu vosita orqali har bir savdo yoki xizmatdan tushum real vaqt rejimida soliq organlariga uzatildi. Natijada yashirin iqtisodiyot qisqarib, shaffoflik oshmoqda.

Elektron hisob-fakturalar va QR-kodli elektron cheklar amaliyoti keng yo'lga qo'yildi. Bu tadbirkorlar o'rtasidagi hisob-kitoblarni ham shaffoflashtirdi, ortiqcha qog'ozbozlik va soxtalashtirish holatlarini keskin kamaytirdi.

Soliq nazorati ham raqamli tahlillarga o'tmoqda. Masalan, NKMLari, bank tranzaksiyalari va mobil ilovalardagi ma'lumotlar integratsiya qilinib, avtomatik tahlil qilinadi. Agarda shubhali operatsiya yoki yashirin daromad belgilari aniqlansa, soliq organi tadbirkordan qo'shimcha ma'lumot talab qiladi.

- **Lekin masalaning ikkinchi jihati bor. Ya'ni, soliq to'lovchilar elektron xizmatlardan qay darajada foydalanmoqda?**

- So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq to'lovchilarning elektron xizmatlardan foydalanish darajasi jadal o'sib bormoqda. Buni bir nechta yo'nalishdagi ma'lumot va raqamlarda ko'rish mumkin.

Xususan, «Soliq» mobil ilovasida soliq to'lovchisini ro'yxatdan o'tkazish, soliq hisoboti kiritish va onlayn to'lovlarni amalga oshirish kabi 15 dan ortiq interfaol xizmat mavjud. Joriy yilga kelib ilovada 12,5 milliondan ziyod foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan (shu jumladan, 7,2 million faol foydalanuvchi mavjud).

Raqamli soliq tizimi tatbiqi soliq to'lovchilarning davlat xizmatiga murojaatini sezilarli kamaytirdi, bu o'z navbatida iqtisodiyotda shaxsiy sektor ishini yengillashtirdi.

Elektron deklaratsiya topshirish tadbirkorlar va yakka tartibdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchilar orasida kengaydi. Masalan, 2025-yildan konsert-ijrochi faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun elektron deklaratsiya imkoniyati ochilganidan so'ng, avgust oyiga qadar qariyb 2 ming nafar litsenziya egasi deklaratsiyani aynan elektron tarzda topshirdi. Bu raqam tizimga ishonch va qulaylik qanchalik yuqori ekanini ko'rsatadi.

- **Yaqin kelajakda viloyatda soliq tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha qanday rejalar bor?**

- Soliq tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi hozirgi paytda ham respublika miqyosida, ham viloyat darajasida strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Yaqin kelajakda rejalashtirilgan ishlar, asosan, uchta yirik maqsadni qamrab oladi. Bular, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish, tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish.

Birinchidan, raqamlashtirish jarayonlari yanada kengayishi kutilmoqda. Masalan, hozirgi kunda faol ishlayotgan my.soliq.uz, «Soliq» mobil ilovasi kabi platformalar orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar yanada ko'paytiriladi. Bu esa soliq hisobotini yuborish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va soliq qarzdorligini onlayn kuzatish imkoniyatini yanada osonlashtiradi. Viloyat miqyosida bu tizimlarni barcha tuman va shaharlarda keng tatbiq qilish orqali tadbirkorlar ham, oddiy fuqarolar ham vaqt va xarajatni tejaydi.

Ikkinchidan, yangi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda. Soliq organlari ularga bepul maslahat xizmatlari, trening va seminarlar orqali huquqiy va amaliy ko'mak berishi kutilmoqda. Shu orqali yangi ochilgan bizneslarning tezkor rivojlanishi va "yashirin iqtisodiyot"ga emas, balki rasmiy maydonga kirishi ta'minlanadi.

Uchinchidan, soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha keng qamrovli axborot ishlari yo'lga qo'yiladi. Ayniqsa, yosh tadbirkorlar va oliyog'hit bitiruvchilari uchun soliq qonunchiligiga oid maxsus o'quv dasturlari amalga oshirilishi kutilmoqda. Bu, o'z navbatida, soliq intizomini mustahkamlaydi va kelgusida qonunbuzarlik holatlarini keskin qisqartiradi.

Yoqubjon MARQAYEV suhbatlashdi.

Alisher Navoiyning terma devoni Eronda saqlanyapti



Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi tashabbusi va homiyligida bir guruh o'zbekistonlik navoiyshunos olimlar uchun Eron Islom Respublikasiga ilmiy ekspeditsiya tashkil qilindi. Ishtirokchilar safar davomida Mashhad, Tus, Gurgon (qadimgi Astrobod) va Gunbadi Kovus shaharlarida bo'lishdi.

Ekspeditsiya tarkibida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetidan professor D.Yusupova, dotsent K.Mullaxo'jayeva, Samarqand xalqaro texnologiya universitetidan kamina hamda tadqiqotchilar F.Mamarajabov va D.Jalilova ishtirok etib, temuriylar davri madaniyati, ilmi va adabiyoti bilan bog'liq manbalarni o'rgandi hamda turkiy tildagi qo'lyozmalar bilan tanishdi.

MASHHAD — MA'NAVİYAT VA ILM MASKANI

Dastlab olimlar Mashhad shahridagi Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonalar, muzeylar va hujjatlar markazida bo'ldi. Bu yerda o'zbek va eronlik olimlar ishtirokida davra suhbatlari o'tkazilib, Alisher Navoiyning Xuroson madaniy hayotidagi o'rni, temuriylar davrida Mashhadning obodonchiligi va uning taraqqiyoti muhokama etildi.

Markaz direktori, doktor Sayid Jalol Husayniyning ta'kidlashicha, temuriylar hukmronligi yillarida Mashhad shahrida katta ishlar amalga oshirilgan.

— Qurg'oqchilik avj olgan bir paytda Sulton Husayn Boyqaro va uning yaqin do'sti, vaziri Alisher Navoiy shaharga suv tortib keltirganlar, ayvon qurdirganlar, — dedi u. — Bu ayvon hozirgacha "Ayvoni Navoiy" nomi bilan mashhur. Hatto Navoiy tortgan suv chashmasi hanuz Imom Rizo harami markazida odamlarga xizmat qilmoqda.

Markaz kutubxonasida ikki millionga yaqin kitob saqlanadi, shulardan yuz ming nusxasi qo'lyozmalardir. Eng qadimiy nusxa — ming yillik tarixga ega Qur'oni Karim bo'lib, uning faksimile nusxasi o'zbek olimlariga ko'rsatildi.

O'zbekistonlik olimlar kutubxona xazinasida turkiy tildagi 400 dan ortiq qo'lyozma

mavjudligini aniqladilar. Ular orasida ikki turkiy Qur'on tarjimai va tafsiri, duolar to'plami va mumtoz adabiyot asarlari bor. Tanlab o'rganilgan qo'lyozmalardan biri Alisher Navoiyning terma devoni ekanligi ma'lum bo'ldi. Devon Navoiyning "Xazoyin ul-ma'oniyy" to'plamidagi mashhur: "Ashra'at min aksi shamsil ka'si anvorul xudo, Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado", deb boshlanuvchi g'azali bilan ochiladi. Devonning ayrim sahifalari yo'qolgan bo'lsa-da, XIX asrda kitobat qilingan qimmatli adabiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

TUS — FIRDAVSIY VA G'AZZOLIY IZLARIDA

Mashhaddan keyin olimlar Tus shahriga yo'l oldi. Firdavsiy maqbarasi hamda buyuk mutafakkir, "Mukoshafat ul-qulub" asari muallifi Abu Homid G'azzoliy qabri ham ziyorat qilindi. Qabr atrofida hali ilmiy jihatdan o'rganilishi lozim bo'lgan bir nechta yangi topilgan qabrlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, olimlar Nosiruddin Tusiy qurdirgan "Rodkon" minorasiga bordilar. XIII asrda barpo etilgan bu minora astronomiya tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lib, keyinchalik Marog'a rasadxonasiga ilmiy zamin bo'lgan.

GURGON — NAVOIY HOKIMLIK QILGAN DIYOR

Ekspeditsiya ishtirokchilari Gurgon (qadimgi Astrobod) shahridagi qator tarixiy obidalarni o'rgandi. Olimlar dastlab Gunbadi Kovus shahrida "Qobusnoma" asari muallifi Kaykovus maqbarasini ziyorat qildilar. Keyin Oq-taq qishlog'ida Maxtumquli Firog'iy qabrida bo'lib, shoir xonadoni va bog'i hanuz mahalliy aholi e'tiborida ekanlik

igiga guvoh bo'lishdi.

Astrobod shahrida saljuqiylar hukmronligi davrida qurilgan va keyinchalik Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim tomonidan ta'mirlangan jome masjidi olimlarda katta taassurot qoldirdi. Masjid hovlisi keng sahnli, to'rt peshtoqli bo'lib, qibla tarafidagi peshtoqqa hokimlar tayinlanishiga oid yozuv lavhalari o'rnatilgan. Mahalliy aholining ta'kidlashicha, ayni shu lavhalar orasida Alisher Navoiyning Astrobod hokimi sifatida tayinlanish farmoni ham bo'lishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. Masjid hozir faoliyat ko'rsatmoqda. Rivoyatlarga ko'ra, masjid ta'mirlanish jarayonida uning hovlisi ostida Gavharshodbegim vaqf etgan oltin tangalar topilgan va ular ta'mir ishlariga sarf etilgan.

BASTOM — BOYAZID AVLIYONING MUQADDAS QADAMJOISI

Ekspeditsiya a'zolari Astroboddan keyin ko'hna Bastom shahriga yo'l olishdi. Bu yerda Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida zikr etilgan ulug' avliyo Boyazid Bastomiy majmuasi ziyorat qilindi. Majmua saljuqiylar davrida barpo etilgan bo'lib, kufiy xat bilan bezatilgan mehrobi, "Qimirlavchi minora"si bilan ajralib turadi. Boyazid Bastomiyning vasiyatiga ko'ra,



qabri ustiga maqbara qurilmagan, aksincha u yerga yomg'ir, qor va quyosh nuri tushib turgan. Majmua yonida temuriy sulton Shohruxmirzo tomonidan qurilgan Shohruhiya madrasasi joylashgan bo'lib, bu inshoot temuriylar me'morchiligi va ilmga bo'lgan e'tiborining yorqin namunasidir. Madrasa ikki qavatli, 28 hujradan iborat. Unda masjid, ayvon va "zo'rxona" mavjud bo'lib, jismoniy va ma'naviy tarbiya birlashgan holda tashkil etilgan.

SANGBAST — NAVOIY QURDIRGAN KARVONSAROIY

Ekspeditsiya davomida Mashhaddagi Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonasida 120

dan ortiq olimlar ishtirokida ilmiy seminar o'tkazildi. Unda Alisher Navoiyning temuriylar davri madaniyatiga qo'shgan ulkan hisssasi, uning ma'naviy merosi va insonparvar g'oyalari muhokama qilindi. Shundan so'ng ekspeditsiya Sangbast majmuasiga yo'l oldi. Bu yerda Amir Arslon Jozib maqbarasi, Ayoz minorasi va Sangbast karvonsaroyi joylashgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Amir Alisher Navoiy vayronaga aylangan Arslon Jozib raboti yaqinida yangi karvonsaroy qurdirgan. Bu karvonsaroy ipak yo'lining muhim bo'g'ini bo'lib, Bag'dod, Nishopur, Saraxs, Marv, Buxoro va Samarqand shaharlarini bog'lab turgan. Karvonsaroy markaziy hovli, hujralar, otxona va xizmat xonalardan iborat bo'lib, devorlari mudofaa maqsadida minoralar bilan bog'langan. Mazkur karvonsaroyning ahamiyati shundaki, u Sharqiy Eronning muhim savdo yo'llarida joylashib, karvonlar uchun muhofazali to'xtash maskani vazifasini bajargan. Vaqt o'tishi bilan bu yerda zindon barpo etilgan va Eron-Iroq urushi davrida karvonsaroy binosi ham asirlarni saqlash uchun zindonga qo'shib olingan. Hozirgi paytda



ta'mirlanib ziyoratchilar uchun ochilgan.

Aytish joizki, ekspeditsiya natijasida turkiy tildagi 400 dan ortiq qo'lyozma aniqlandi, ulardan biri Alisher Navoiyning terma devoni ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Shuningdek, temuriylar davri ilm-fani, san'ati va me'morchiligiga oid qator yangi ma'lumotlar to'plandi. O'zbek olimlari bu kashfiyotlarni ilmiy iste'molga kiritish, Navoiy davri madaniy merosini yanada chuqur o'rganishni maqsad qilgan.

Umedullo MAHMUDOV,
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti qoshidagi o'zbek tili va madaniyati markazi rahbari.

Viloyatimizdagi Abu Ali ibn Sino nomidagi to'qqizta — Samarqand, So'zangaron, Siyob, Urgut, Past Darg'om, Kattaqo'rg'on, Paxtachi, Ishtixon va Payariq jamoat salomatligi texnikumlarida ta'lim va amaliyot sifatini oshirish bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratildi.

Samarqand davlat tibbiyoti universiteti ushbu texnikumlar bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yib, professor-o'qituvchilarni o'quv jarayonlariga jalb etmoqda. Texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarga ilmiy-metodik ko'mak ko'rsatilib, ular SamDTU klinikalarida amaliyot o'tamoqda.

Yaqinda Kattaqo'rg'on jamoat salomatligi texnikumida "Yangi avlod hamshiralari tayyorlashda uzluksiz ta'lim" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Anjumanda Kattaqo'rg'on shahar hokimi G.Alimova, SamDTU rektori J.Rizayev, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i A.Nasimov, Samarqand davlat universiteti professor-o'qituvchilari hamda hamshiralar malakasini oshirish instituti mas'ullari ishtirok etdi.

Ishtirokchilar texnikumda yaratilgan o'quv va amaliy sharoitlar, zamonaviy simulyatsion markaz, tibbiy asbob-uskunalar hamda axborot-resurs

Yangi avlod hamshiralari qanday tayyorlanadi?



markazi faoliyati bilan tanishdi. Tadbir doirasida universitetimiz bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlarga bag'ishlangan ko'rgazma ham tashkil etildi. Ko'rgazmada kafedralar tomonidan mahorat darslari,

darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar namoyish etildi.

Konferensiya ishida ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va texnologik usullarni

qo'llash, ilg'or xorijiy tajribalarni sharoitga mos ravishda joriy etish masalalari muhokama qilindi. "Ustoz-shogird" an'analarni mustahkamlash, amaliy mashg'ulotlarni klinik baza bilan bog'lash, hamshiralik faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Bugungi global raqobat davrida tibbiy ta'lim sohasida kadrlar tayyorlashda uzluksizlik va integratsiya tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi, - dedi universitet rektori J.Rizayev. - Bu nafaqat mahalliy mehnat bozori, balki xalqaro talablargajavob beradigan mutaxassislar tayyorlashda muhim omil. Shu ma'noda, Germaniya, AQSh, Angliya, Polsha, Koreya kabi rivojlangan davlatlarda hamshiralik faoliyatiga bo'lgan qiziqish yuqori bo'lgani kabi O'zbekistonda ham bu yo'nalishga ehtiyoj ortib bormoqda. Demak, ta'lim jarayonida xalqaro standartlarga mos bilim va ko'nikmalarni shakllantirish zarur.

Bundan tashqari, oldimizda ta'lim jarayonida ilmiy tadqiqotlarga keng yo'l ochish, hamshiralik faoliyati bo'yicha ilmiy ishlanmalarni rag'batlantirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va xalqaro tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish kabi dolzarb vazifalar ham turibdi.

Konferensiya yakunida tizimda mavjud muammo va kamchiliklar muhokama qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

Feruz DAMINOV,
SamDTU prorektori.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Ekspeditsiya



Назм



Yashlikka tular toбора boғ...

*Дунё саҳнасида бари намоён,
Турланиб айланар ҳар он ҳаволар.
Оламда бор экан токи тирик жон,
Бошига тушади не-не савдолар.*

*Эзгулик гулини кўксига босиб,
Орзулар ошқар тонга интизор.
Қадами кутлуглар бунга муносиб,
Хабарлар йўллади саодатга ёр...*

*Кимга бу насибдир, кимдир бенасиб,
Оловлар ичида қай тақдир гирён.
Довулу бўронлар йўللари тўсиб,
Ёр ила осмонни қийнаши аён.*

*Қайси бир кимсалар бўридай ўлаб,
Ёвузликларини этади ошқор.
Мазлумлар ҳақида ўтирмас ўйлаб,
Мақсади эрта-кеч етказмоқ озор...*

*Ёр шари оҳ чекиб юборар гоҳи,
Силкиниб кўксига сезади оғриқ.
Билмайди дунёда недир гуноҳи,
Ахир инсон билан ҳаёти боғлиқ...*

*Сендан мен зўр дея кўкрак керганлар,
Бахтига зоминдир инсониятнинг.
Абадий яшайман дея юрганлар,
Ашаддий душмани эзгу ниятнинг!*

*Коинот бағрида яшил бир олам,
Авлоддан авлодга қилгувчи мерос.
Наҳотки кулфатга интилса одам,
У инсон эмасдир, у — иблис ҳолол!*

*Тафаккур олами уйғоқдир ҳали,
Кўҳна бу дунёда ёниқ қалблар бор!
Яратган қўллайди бизни аввали,
Нокасу ножинсга йўл бермас зинҳор!*

*Шарқу Ғарб йўлида адашмас кўёш,
Сўнмайғай нуллари абадитнинг.
Тонглари шодланиб шомга қўйса бош,
Улғудир ҳар лаҳза ҳидоятининг...*

*Замондақ, фахрлан она юртингдан,
Қарагил, водийлар ястанган, кўркам.
Тақдиринг бахш этган шундай бахтингдан,
Сен яшаб юрибсан тинч ва хотиржам.*

*Ниҳоллар бўй чўзар азим ва дурқун,
Кўк қадар ёяди қулочларини.
Уларнинг шаштлари айлайди мафтун,
Боғларнинг минг йиллик оғочларини.*

*Ҳис этдим атрофда баҳор сурурин,
Гўёки яшиллик ёйибдир супра.
Аямай беминнат сочади нурин,
Кўёш мангу кетмас бу боғлар узра!*

*Яшилликка тўлар тобора бу боғ,
Қўйини тўлдирар дарахт, чечаклар.
Аламдан, қайғудан кетади йирок,
Бағридан юлинар алаф, печаклар.*

*Бир томонда уйғоқ Боғибаланддир,
Насимлари келар Боғишамолнинг.
Улар-чун яшнамоқ иши санъатдир,
Қудрати етмайди хатто ҳаёлнинг.*

*Узайиб боради нурафшон йўллар,
Олис манзилларнинг борлиғига жо.
Боғибехишт аро пайдо бўлбулар,
Дилларни яйратар Боғидилқушо.*

*Ахир бу кунларга етмади осон,
То ёруғ қилгунча бу мунглиғ юзни.
Бошидан кечирган довулу бўрон,
Неча қиш-қировни, неча ёз, кузни.*

*Кўнгиллар қаърига улашиб учқун,
Умри узаяди нулли моҳтобнинг.
Ажиб нидолари келадир бугун,
Боғларга елкадош Афросиёбнинг.*

*Қадимий Зарафшон тўлиб оққайдир,
Мадади тутамас Аму ва Сирининг.
Эзгулик эртаси шодон боққайдир,
Нурафшон манзили мақсади бирининг.*

*Шамоллар қошида эгилмади ҳеч,
Селлар босқини ҳам бўлди бесамар.
Бу боғ толесига бўлди бахтлар эш,
Орзу-умидлари етди кўк қадар.*

*Хавотирнинг уйи бўлғайдир барбод,
Бахти келгай албат бахтга ҳаққининг.
Боғ каби тўлавер, бўлавер обод,
Нигоҳи сендадир дунё аҳлининг.*

*Эй боғ!
Самарқандда умрингдир гулгун,
Сўлим чаманлардан олгандир улгу.
Яшнамоқ, яшнатмоқ учун аталган,
Осуда ҳаётнинг рамзи бўл мангу!
Ўткир РАҲМАТ.*



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 834 nusxada chop etildi. Buyurtma 541. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda